



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 68-73 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH POTENSIALI TARKIBI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI



Ahmadaliyeva Mohigul Kadirovna

Farg'ona davlat universiteti,

Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası o'qituvchisi

Email: ahmadalievamohigul76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarining ishlab chiqarish potentsiali tushunchasi, uning asosiy tarkibiy qismlari va samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish potentsialini baholash va undan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, xorijiy tajriba va O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish potentsiali, sanoat korxonalari, ishlab chiqarish samaradorligi, potentsial tarkibi, resurslardan foydalanish.

Аннотация. В статье рассматриваются понятие и структура производственного потенциала промышленных предприятий, теоретико-методологические основы его эффективного использования, современные подходы к оценке потенциала и возможности их применения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: производственный потенциал, промышленные предприятия, эффективность, структура потенциала, использование ресурсов.

Abstract. The article analyzes the concept and composition of the production potential of industrial enterprises, theoretical-methodological foundations of its effective use, modern evaluation approaches, and their application potential in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: production potential, industrial enterprises, efficiency, structure of potential, resource utilization.

Kirish

Bugungi globallashuv, texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya jarayonlari sanoat tarmoqlarining rivojlanish dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari sanoat korxonalarining mavjud resurslardan qanday foydalanyotganiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish potentsialini aniqlash, baholash va undan oqilona foydalanish masalasi hozirgi bosqichda strategik ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqarish potentsiali deganda, korxonaning mavjud ishlab chiqarish resurslarini jalb qilgan holda mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish imkoniyati tushuniladi. Bunda asosiy urg'u ishlab chiqarish vositalari, texnologik infratuzilma, mehnat resurslari, boshqaruv salohiyati hamda moliyaviy va intellektual resurslarga qaratiladi [1]. Mazkur potentsial real holatda to'liq ishga solinmaguncha, korxonaning haqiqiy iqtisodiy salohiyati

to'g'risida xulosa chiqarish mushkul bo'ladi.

Ishlab chiqarish potentsiali ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Moddiy-texnik baza (asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari, uskunalar, binolar);
- Mehnat resurslari (xodimlar soni, ularning malakasi, tajribasi va tashabbuskorlik darajasi);
- Tashkiliy-boshqaruv resurslari (menejment samaradorligi, qaror qabul qilish mexanizmlari);
- Moliyaviy imkoniyatlar (sarmoya kiritish salohiyati, daromadlar va xarajatlar muvozanati);
- Innovatsion va intellektual kapital (yangilik yaratish salohiyati, texnologik yangilanish darajasi).

Shuningdek, ishlab chiqarish potentsialining samarali boshqarilishi sanoat korxonalari uchun nafaqat ichki ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kengaytirish, texnologik mustaqillikni ta'minlash va iqtisodiy xavfsizlikka hissa qo'shadi. Sanoat ishlab chiqarishida mavjud potentsialdan foydalanish darajasi bevosita ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot tannarxi, foyda marjasi, resurslar tejamliligi, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sifati va iste'mol bozoridagi ulush kabi ko'rsatkichlarga ta'sir etadi. Shu bois ishlab chiqarish potentsialining har tomonlama o'rganilishi, baholash usullari, tarkibiy qismlari va ulardan samarali foydalanish strategiyalarining ishlab chiqilishi ilmiy-amaliy muammo sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Ishlab chiqarish potentsiali iqtisodiy kategoriyalar ichida murakkab va ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Uning nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari — A. Smit, D. Rikardo va J. St. Mill tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular ishlab chiqarish faoliyatining asosi sifatida yer, mehnat va kapital kabi uchta muhim omilni ajratib ko'rsatganlar. Aynan A. Smit o'zining mashhur asari *“Millat boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot”*da ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini bu resurslardan oqilona foydalanish orqali oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [3].

Davr o'tishi bilan iqtisodiy fikr evolyutsiyasi natijasida ishlab chiqarish potentsiali tushunchasi sezilarli darajada boyidi. Ayniqsa, neoklassik iqtisodchilar va institutsional nazariya vakillari tomonidan bu tushuncha zamonaviy boshqaruv elementlari, texnologik rivojlanish, inson kapitali va innovatsion salohiyat bilan kengaytirildi. Aynan R. Solow o'zining *“Texnik o'zgarish va agregat ishlab chiqarish funksiyasi”* nomli maqolasida ishlab chiqarish hajmidagi o'sishni nafaqat an'anaviy omillar, balki texnologik taraqqiyot va bilimlarga asoslangan resurslar bilan bog'laydi [4]. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish potentsiali ko'pincha makroiqtisodiy salohiyat, quvvat sig'imi, resurslardan foydalanish darajasi kabi tushunchalar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Xalqaro amaliyotda OECD, UNIDO, va Jahon banki hisobotlarida ishlab chiqarish potentsiali korxona darajasida quyidagi asosiy komponentlar orqali tahlil qilinadi [5]:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlari – ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi texnik

vositalar, mashina-uskunalar, ishlab chiqarish liniyalari va texnologik infratuzilma darajasi. Ularning yangiligi, energotejamkorligi va texnik xizmat ko'rsatish sifati korxonaning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir qiladi.

2. Mehnat resurslari – xodimlarning soni, malakasi, ixtisoslashuvi, mehnatga motivatsiyasi va intellektual salohiyati. Ayniqsa, raqamli transformatsiya davrida malakali inson kapitali ishlab chiqarish samaradorligining muhim manbaiga aylangan.

3. Ishlab chiqarish maydonlari va ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma – binolar, transport-logistika tizimi, texnik xizmat ko'rsatish markazlari va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlovchi tizimlar mavjudligi.

4. Energiya va xomashyo resurslariga kirish imkoniyati – ishlab chiqarish barqarorligi va uzluksizligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri. Ayniqsa, energiya tejamkor texnologiyalarga o'tish masalasi ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi va ekologik barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan muhimdir.

5. Innovatsion va texnologik salohiyat – yangi texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyati, raqamlashtirish darajasi va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi korxonaning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi [5].

Yuqoridagi tarkibiy qismlarning uyg'unlashgan ishlashi korxonaning umumiy ishlab chiqarish salohiyatini tashkil qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish potensialining faqat jismoniy omillar bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv salohiyati, innovatsion muhit, korporativ madaniyat kabi yumshoq omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekani aniqlangan. Ayniqsa, Lean production, Just-in-time, Kaizen, Total Quality Management (TQM) kabi boshqaruv yondashuvlari ishlab chiqarish potensialining samarali boshqaruvi uchun yangi metodologik asoslarni yaratdi [2]. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish potentsiali tushunchasi tarixiy jihatdan shakllanib kelgan va hozirgi kunda iqtisodiy, texnologik, tashkiliy va insoniy omillarning sinergiyasiga asoslangan murakkab tizim sifatida talqin etilmoqda. Dissertatsiyada ushbu yondashuvlar asosida O'zbekiston sanoat korxonalarida ishlab chiqarish potensialini baholash va undan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan biri — ishlab chiqarish salohiyatini to'laqonli va samarali safarbar etish orqali sanoat korxonalarining ichki resurslardan foydalanish darajasini oshirishdir. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida bu masala nafaqat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, balki resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish va innovatsion salohiyatni kengaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois mazkur dissertatsiyada tadqiqot metodologiyasi sifatida kompleks tizimli tahlil, komparativ metod, institutsional yondashuv, hamda amaliy modellashtirish uslublari qo'llanilgan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqarish potensialini o'rganishda quyidagi zamonaviy konseptual va amaliy yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlangan:

1. Lean Production (yupqa ishlab chiqarish) modeli. Ishlab chiqarish potensialining foydalanish darajasini oshirishda eng samarali yondashuvlardan biri bu — Lean production modelidir [2].

2. ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari. Ishlab chiqarish resurslarining

oqilona boshqaruvi va koordinatsiyasini ta'minlashda ERP tizimlari muhim rol o'ynaydi.

3. Uzlüksiz ta'lim va inson kapitali salohiyatini oshirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari — zamonaviy ishlab chiqarish potentsialining ajralmas qismi hisoblanadi..

4. Raqamli transformatsiya va texnologik integratsiya. Zamonaviy ishlab chiqarish potentsiali endilikda nafaqat jismoniy ishlab chiqarish fondlari, balki raqamli texnologiyalar bilan boyitilganligi bilan ham farqlanadi.

5. Xalqaro tajriba asosida qiyosiy tahlil. Tadqiqot doirasida ishlab chiqarish potentsialidan samarali foydalanish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar, xususan Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi chuqur tahlil qilindi [6].

Tahlil va natijalar

O'zbekiston sanoat tarmoqlari bugungi kunda iqtisodiy islohotlar, raqamli transformatsiya va eksport salohiyatini oshirish yo'nalishida faol harakat qilayotgan bo'lsa-da, korxonalar darajasida mavjud ishlab chiqarish potentsialidan to'liq va samarali foydalanilmayotgani kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiy tahlillar va soha ekspertlarining baholarida ham o'z tasdig'ini topgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ko'plab sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarining 30–40 foizigacha bo'lgan qismi real ishlab chiqarishda ishtirok etmayapti. Ushbu salohiyat zaxirada turibdi yoki eskirgan uskunalar, samarasi past texnologiyalar, va yetarli darajada malakali ishchi kuchining yo'qligi sababli to'liq safarbar etilmayapti. Korxonalarning texnologik fondlarining 50–60 foizdan ortig'i eskirgan, ularning bir qismi zamonaviy energiya va mehnat samaradorligi talablarga javob bermaydi [6]. Bu muammolarni tahlil qilganda quyidagi asosiy to'siqlar ajralib chiqadi:

1. Ishlab chiqarish vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi – Korxonalarda hali ham 1970–80-yillarda o'rnatilgan texnologik liniyalar faoliyat yuritmoqda. Bu holat energiya sarfining ortishi, mahsulot sifati va tannarxining raqobatchilardan orqada qolishi bilan bog'liq.

2. Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi – Innovatsion ishlab chiqarish mexanizmlarini joriy etishda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega muhandis-texnik mutaxassislar, texnologlar, IT mutaxassislarining yetishmasligi mavjud. Bu esa yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni sekinlashtiradi.

3. Boshqaruv tizimining eskiligi – Ko'plab sanoat korxonalarida ishlab chiqarish rejalashtiruv, zahira boshqaruvi, logistika va xarajatlar tahlili hali ham an'anaviy qo'lda yuritiladigan usullar asosida olib boriladi. Buning natijasida ishlab chiqarishdagi samarasizlik darajasi ortmoqda.

4. Resurslardan foydalanishdagi noto'g'riliklar – Mahalliy xomashyo bazasidan to'liq foydalanilmasligi, energiya resurslarining isrofgarchilik bilan sarflanishi, ishlab chiqarish chiqindilarining qayta ishlanmasligi ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini cheklaydi.

Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston sanoat korxonalarida kompleks yondashuv asosida quyidagi strategik yo'nalishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

➤ Texnik-modernizatsiya siyosati – mavjud ishlab chiqarish fondlarini bosqichma-bosqich almashtirish, energiya tejamkor va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali quvvat yuklanishini optimallashtirish;

➤ Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish – ishlab chiqarish muammolariga mos kadrlar strategiyasini shakllantirish, texnikum va oliy o'quv yurtlari bilan sanoat korxonalari o'rtasida "dual ta'lim" tizimini yo'lga qo'yish;

➤ Boshqaruvni raqamlashtirish va avtomatlashtirish – ERP, SCM, CRM kabi zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash orqali inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish;

➤ Innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini korxona ichki tizimiga kiritish – texnoparklar bilan hamkorlik qilish, B2B va B2G innovatsion aloqalarni rivojlantirish.

Shuningdek, ishlab chiqarish potensialining baholash tizimini ham zamonaviylashtirish lozim. Bunda total factor productivity (TFP), quvvat yuklanishi koeffitsienti, mehnat samaradorligi, resurslar sig'imi kabi indikatorlardan foydalanish orqali korxonaning ichki imkoniyatlari, rezerv resurslari va ularning ishga solinishi darajasi aniqlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarish potentsiali borasidagi muammolarni alohida emas, balki tizimli yondashuv asosida hal qilish orqali korxonalarni nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro raqobat muhitida ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash mumkin.

Xulosa

Ishlab chiqarish potentsiali bugungi global iqtisodiyotda sanoat korxonalarining asosiy strategik resurslaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. U nafaqat ishlab chiqarish jarayonining texnik va texnologik bazasini, balki inson kapitali, boshqaruv salohiyati, innovatsion va moliyaviy imkoniyatlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, ishlab chiqarish potentsiali to'g'risidagi tasavvur, uni baholash mezonlari va undan foydalanish mexanizmlari korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi, eksport salohiyati va umumiy iqtisodiy xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati ko'p hollarda to'liq safarbar etilmagan. Bunga ishlab chiqarish vositalarining eskirganligi, texnologik modernizatsiya jarayonlarining sustligi, malakali kadrlar yetishmasligi, boshqaruv tizimining raqamli texnologiyalarga mos emasligi va innovatsion faoliyatning yetarlicha rivojlanmaganligi sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlarining yetarli yuklanmasligi, resurslardan foydalanishning samarasizligi va ichki ishlab chiqarish ehtiyojlarining cheklangani ham iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish potentsialini samarali boshqarish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar zarur:

➤ Texnik-modernizatsiya va raqamlashtirish — zamonaviy energiya tejamkor va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish quvvatlarini optimallashtirish va avtomatlashtirishni ta'minlash;

➤ Kadrlar salohiyatini oshirish — uzluksiz o'qitish (lifelong learning), malaka oshirish va "dual ta'lim" tizimi orqali korxonaga mos keluvchi muhandis-texnik mutaxassislar tayyorlash;

➤ Innovatsion salohiyatni kengaytirish — ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yangi mahsulotlar va texnologiyalar ishlab chiqish, texnoparklar bilan kooperatsiyani yo'lga qo'yish;

➤ Boshqaruv tizimining modernizatsiyasi — ERP, CRM va boshqa korporativ boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish va aniqligini oshirish;

➤ Baholash tizimini takomillashtirish — ishlab chiqarish potensialini baholashda TFP (Total Factor Productivity), quvvat yuklanishi, mehnat unumdorligi, mahsulot chiqish koeffitsienti kabi indikatorlardan tizimli foydalanish.

Ushbu yondashuvlar ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning optimallashtirilishiga, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligiga, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmining oshishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, korxona ichki boshqaruvining isloh qilinishi, tashqi muhitga tezkor moslashuvchanlik va bozordagi ulushning kengayishi kabi ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish potensialining samarali boshqaruvi sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. U nafaqat korxona darajasidagi operatsion faoliyatni kuchaytiradi, balki makroiqtisodiy miqyosda raqobatbardosh milliy sanoat infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ishlab chiqarish potensialini chuqur tahlil qilish, zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va xalqaro tajribaga tayangan holda milliy modelni taklif etish O'zbekiston sanoatining kelgusi rivojlanishi uchun zaruriy ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Mehnat, 2009.
2. Womack J., Jones D. Lean Thinking. – N.Y.: Simon and Schuster, 2003.
3. Smit A. Tadqiqotlar boylik sabablari haqida. – Moskva: Eksmo, 2007.
4. Solow R.M. Technical Change and the Aggregate Production Function // The Review of Economics and Statistics. – 1957.
5. OECD. Compendium of Productivity Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2021.
6. Nazarov Q.S., Karimov B.S. Inson kapitali va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri // TDIU ilmiy axborotnomasi. – 2020. – №3. – B. 24–30.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

